

О‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UNDOSSH FONEMALARNING O‘RGANILISHI

Filologiya va ijtimoiy fanlar
fakulteti

O‘zek tili va adaabiyot
yo‘nalishi

25_15 guruh talabsi
Abdivoitova

Feruza Zafarjon qizi.

Abduvayitovaferuza14@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi o‘zbek tilshunosligida undosh fonemalarning o‘rganilishi turlicha. Ushbu maqola undosh tovushlar to‘g‘risida turkolog va o‘zbek olimlarining qarashlari, fonema tushunchasi, tovush va fonemalarning munosabatidagi farqlanishi, bog‘liqligi tahlil qilinadi. Boshqa lisoniy birlik kabi fonemaning ham paradigmatic va sintagmatik munosabatda bo‘lishi va o‘zbek tilshunoslarining undosh tovushlar to‘g‘risida bir-biridan farqli qarashlari va o‘zbek undosh tovushlarining tarixiy qarashlari keltiriladi. Ushbu qarashlarni tahlil qilishdan maqsad o‘zbek tilshunoslarining undosh fonemalar to‘g‘risidagi turli bahslaridir.

Аннотация: Изучение согласных фонем в современной узбекской лингвистике носит многообразный характер. В статье работе анализируются взгляды тюркологов и узбекских ученых на согласные звуки, различия во взаимосвязи между фонемами, звуками и фонемами, а также их взаимосвязь. Представлен факт, что фонема, как и любая другая языковая единица, имеет

парадигматическую и синтагматическую связь, а также различные взгляды узбекских лингвистов на согласные звуки и исторические представления об узбекских согласных. Цель анализа этих взглядов – проанализировать различные точки зрения узбекских лингвистов на согласные фонемы.

Abstract: The study of consonant phonemes in current Uzbek linguistics is diverse. This article analyzes the views of Turkologists and Uzbek scholars on consonants, the concept of phoneme, the differences in the relationship between sound and phonemes, and their relationship. The paradigmatic and syntagmatic relationship of a phoneme, like any other linguistic unit, and the different views of Uzbek linguists on consonants and the historical views of Uzbek consonants are presented. The purpose of analyzing these views is to analyze the various debates of Uzbek linguists on consonant phonemes.

Kalit so'zlar: fonema, tovush, undosh fonema, undosh fonemalarning o'rganilishi, fonologik asarlar.

Ключевые слова: фонема, звуки, согласная фонема, изучение согласных фонем, фонологические работы.

Keywords: phoneme, sound, consonant phoneme, study of consonant phonemes, phonological works.

“Fonema” tushunchasi paydo bo'lgunga qadar davrda fonema va tovush hamda harflar o'rtasidagi farq aniq ko'rsatilmay, tovushlar talaffuzining so'zlardagi ma'lum holatlarda etimologik o'zgarishlariga ko'proq e'tibor berilgan. I.A.Boduen de Kurtenening psixologik fonologiya nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra “fonema” tildagi tovushlarning psixik ekvivalenti yoki tovush tushunchasining kishi ongida his etilgan birligidir. Uning ko'rsatishicha fonema tildagi morfologik sintaktik va semasiologik tushunchalar bilan bog'langan fonetik birlikdir. “Fonema” tushunchasi bo'yicha turkolog olim L.V.Scherba o'zining asarida “Jonli nutqda turli xil tovushlar talaffuz etiladi, har bir tilda uchraydigan bunday tovushlar so'z va uning formulalarini

farqlashda hamda butun jamiyat uchun xizmat qiladigan tovush turi bu fonema deb nomlanadi"-deb, fikr bildirgan.

Ingliz olimi D.Jons ta'rif bilan aytadigan bo'sak bir-biriga yaqin tovushlar guruhi yoki oilasini o'zida mujassam etgan fonema so'zlarni bir-biridan farqlash imkoniyatiga ega. Tovush bir oilaga, bir orfografik, grammatik va semantik butunlikka birlashadi. Masalan, "k" tovushining variantlari ingliz so'zlari cool, call, cup kabi so'zlarda bir-biridan fizik jihatdan ajralib turadi, ammo tajribaviy yaxlitlikda bitta fonema deb hisoblashimiz kerak. Rus millatiga mansub turkolog olim N.S.Trubetskoy fonemani fonologik birlik deb tushunadi. Uning fikricha, "Fonema-mavjud fonologik birlik belgilar yig'indisidir"-deb, ta'kidlaydi.(3:42) V.M.Solntsevning fonetikaga oid ta'rificha, "Fonema tildagi tovush sistemasining bir tomonlama birligi, u bir-biriga ham funksional, ham fizik o'xshash bo'lgan tovushlar sinfini o'zida namoyon etadi. Fonema ma'no farqlovchi va ma'no ifodalovchi funksiyaga ega, fonema o'zi yakka holda garchi ma'no ifoda eta olmasa-da, ammo so'z va morfemalarning tovush tomonini tashkil etib, ulardagi ma'no farqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi." "Fonema" tarmini va tushunchasini turkologiyaga birinchi marta 1920-yillarda taniqli olim N.K.Dmitriyev kiritgan bo'lsa, uni o'zbek tilshunosligida birinchi bor o'sha yillarda professor Ye.D.Polinov qo'llagan.

O'zbek tilshunosligida fonemaga oid izlanishlar XX asrning yarimidan ilmiy tomondan o'rganila boshlagan. O'zbek tili fonologiyasini o'rganishda qator olimlarning o'rni beqiyos. Bular: V.Reshetov, A.Nurmonov, A.Abduazizov va boshqalarning ilmiy ishlari juda ham ahamiyatlidir. O'zbek tili fonologiyasining shakllanishida G'.Yunusov, A.G'ulom, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Mahmudov, S.Otamirzayeva, E.Umarov kabi tilshunoslarning xizmati katta. Fonema borasida izlanishlar o'zbek tilshunosligida keyingi davrlarda ham chuqur taqiq qilindi. O'zbek tilshunosligida sistem tomonidan yondashuvlar fonologiya va uning o'rganish obyekti bo'lgan fonema masalasi yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga yo'l ochdi. A.N.Nurmonovning 1990-yilda nashr etilgan "O'zbek

tili fonologiyasi va morfonologiyasi"asari fonologiya borasidagi ishlarning yorqin namunasi bo'lgan. A.Abduazizov esa o'zbek tili fonemalarini paradigmatic va sintagmatic aspektda alohida o'rganib, o'zbek tili fonologiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. 1992-yilda A.Abduzuhurovning "O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi" kitobi fonologiyaning o'rganilish obyekti va dunyo tilshunosligida fonemaga oid nazariyalar haqidagi ilmiy asardir. Fonema va o'zbek tilshunosligidagi talqini borasida dissertatsiyalar ham yaratildi. "O'zbek tilida lisoniy birliklarning unvariant -variant munosabati (fonologik sath)" nomzodlik dissertatsiyasi (Nabiyeva Dilora Abduhamidovna,1998), "O'zbek tilida paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mo'tadillashuvi (Fonologik sath)" nomzodlik dissertatsiyasi (Nurmonova Dilfuza Abduhamidovna,1998-yil) kabi ilmiy ishlar qilingan.

A.Abduazizov nutqni fonetik jihatdan o'zgacha mavjud bo'lgan barcha mualliflar kabi ibora (fraz), takt, bo'g'in va tovushlarga bo'ladi.Olim fikrining boshqalardan farqi,bu birliklarni u paradigmatic qatorda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin bo'lgan birliklarga zidlaydi: tovush -fonema, takt-taktema, bo'g'in-sillabema va boshqalar.

Tovush va Fonemaning munosabati, farqlanishi, bog'liqligi,belgi va xususiyatlari to'g'risida tilshunoslikda turli fikrlar va mulohazalar mavjud. Bir fonema bir qancha tovushlarda namoyon bo'ladi. Ko'pincha bir fonemani ifodalovchi tovushlar artikulyatsion va akustik jihatdan yaqin bo'ladi. Biroq bir fonema bir necha har xil artikulyatsion va akustik xususiyatlarga ega bo'lgan tovushlarda ifodalanishi ham mumkin.Masalan,rus tilida (g) va (g') tovushlari bitta (g) fonemasining vakilidir: города (gorot), (g'orot) kabi.

Tovush tilni namoyon etuvchi manbaidir, ya'ni til usiz namoyon bo'lmaydi. Z.R.Zinder ta'kidlaganidek, tilning zaruriy qismini tovush tomoni tashkil qiladi.(1;4) Har qanday til asosida nutq tovushlari yotadi. Nutq tovushlari nutq organlari orqali shakllanadi, inson organizmida tilni yuzaga keltira oladigan boshqa organ yo'q.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tili fonetikasini Va.Reshetov va Shu.Shoabdurahmonov hamkorlikda yaratishgan.Ular nutq tovushi va fonema munosabati,fonemalar tavsifi, nutq tovushi o'zgarishi haqida, bo'g'in va urg'u haqida ma'lumot bergan.(3;36) A.N.Kononov ham o'zbek adabiy tili fonetikasiga to'xtalib shu doiradagi ma'lumotlar keltirgan. O'zbek tili fonetikasini yaratgan mazkur tilshunoslar asosan ruslar bo'lganligi sababli rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlar o'zbek tiliga ham tadbiq etib yuborilgan. Fonemaning mohiyati doirasidan chiqqan tovush uning varianti sanalmaydi. Masalan, (b) fonemasi jarangli undosh fonema.Talaffuzda u jarangli bo'lsagina, (b) fonemasining varianti sanaladi. Tovush (variant)larning bir fonemaga birlashishi uchun ularning barchasida o'zgarishsiz saqlanadigan muhim bir xossa e'tiborga olinishi lozim. Bu bir guruhga kiruvchi barcha variantning ushbu guruhga kirmaydigan boshqa variantga bir xil qarama-qarshi turishi (bunday belgi, odatda, fonologik farqlovchi belgi ham deyiladi) va bir xil ma'no farqlashidir.

Turkiy tillar tarixiga nazar tashlanganda undosh qatlamning unli qatlamga nisbatan barqarorroq saqlangani ko'rinadi, biroq o'zbek tili uzoq vaqt davomida arab, fors va rus tili bilan aloqa qilgani sababli undosh tizimiga ham chetdan kirgan tovushlar qo'shilgan. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilidagi badiiy va publitsistik matnlar,oliy ta'lim uchun yaratilgan darsliklar, radio va televideniye nutqlari,shuningdek Toshkent va viloyat markazlarida yozib olingan jonli so'zlashuv namunalaridan foydalanildi.Ushbu materiallar fonetik transkepsiya qilinib, undoshlarning so'z boshi,so'z ichi va so'z oxiridagi realizatsiyasi taqqoslandi. Struktur-fonologik metod yordamida tovushlarning ma'no farqlashga xizmat qilishi aniqlanib, minimal juftliklar asosida ularning fonema maqomi belgilandi. Artikulyatsion — fiziologik yondashuv esa undoshlarni hosil bo'lish o'rni bo'yicha (bilabial, lab-dental, alveolar, palato-alveolyar, velar, uvulyar) hamda hosil bo'lish usuli bo'yicha (portlovchi, sirg'aluvchi, afrikata, burun, lateral, titroq) tasniflash imkonini berdi. Rus, mardva, chuvash, nenes va fransuz tillarida til oldi unlilaridan oldin undoshlar palatalizatsiyaga qilinadi, ya'ni regressiv akkomodatsiyaga uchraydi.

Fonologik oppozitsiyalar doimiy va neytralizatsiyalashuvchi bo'ladir. Masalan, rus tilida луг (luk), град (grat) kabi. O'zbek tilida esa, kitob (kitob), qand (qant) kabi. Bunda xususiyat fonologik neytralizatsiya deyiladi.

O'zbek tilidagi sonor tovushlarning tarkibi har xil ko'rsatilib kelinmoqda. M, n, ng, l, r undoshlarining sonantligi fonetika va fonologiyaga oid adabiyotlarning deyarli barchasida qayd etilgan bo'lsa, "y" ning sonantligi ayrim adabiyotlarda ta'kidlangan. Taniqli turkolog E. V. Sevortyan esa o'zbek tili sonorlari qatoriga v, g' undoshlarini ham kiritgan. "v" ning sonantligini S. Otamirzayev (22, 49) va A.A.Abduazizov (1-30) ishlarida ham qayd etilgan. M.Mirtojiyev sayoz til orqali "ng" dan tashqari, chuqur til orqali "n" ning borligini ham ko'rsatadi, ammo "y" ni sonorlar qatoriga kiritmagan.

O'zbek tilshunosligida undosh fonemalar tizimining o'rganilishi turlicha. Ammo fonema tushunchasi, fonema va tovushlarning munosabatidagi farqlanishi ilmiy adabiyotlarda berilgan, biroq uning yangicha tahriri ishlab chiqilishi davr taqazosidir. O'zbek tilshunosligida undosh tovushlarning tahlili, o'rganilish manbasi ustida ilmiy izlanishlar, amaliyotga qo'llash bilan bog'liq muammolarning yechimiga oid vositalar lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бадюен де Куртене: Избранные труды по общему языкознанию Т.И.М., изд. "Наука", 1963, с.41-46
2. L.V.Shcherba — "фонитека французского языка" (2;18)
3. A.A.Abduazizov "Tilshunoslik nazariyasiga kirish"
4. L.R.Zinder "obshaya fonetika" (2-izd. — M.: VSh., 1979)
5. A.Abduzuhurov "O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi" 1992
6. A.Mahmudov "O'zbek tili sonorlari" — T. "O'zbek tili va adabiyoti " 1969
7. M.Mirtojiyev "O'zbek tili fonetikasi" — T. "Universitet", 1998 23-25

8. H.A.Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" 59-67.
9. Ganiyeva Dildora Sagdullayevna — "O'zbek tilshunosligida fonemalarning tasnifi va tavsifi" maqolasi , (322-326)
10. Xadiyev Mirzabek Karshibay o'g'li — "O'zbek tilida undosh fonemalar tizimi va ularning artikulyatsion xususiyatlari" tezisi (15-17).
11. R.Sayfullayeva, „Hozirgi o'zbek adabiy tili“. Toshkent-2009-yil.